



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
INNOVATSION
RIVOJLANISH VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIJ VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIYAT VAZIRLIGI



BUXORO VILOYAT
HOKIMLIGI



BUXORO

OLAMOLAMANI MADANIYATI MARKAZI
جامعة بخارا في العالم الإسلامي
— 2020 —

THE SIGNIFICANCE OF BUKHARA IN THE ISLAMIC CIVILIZATION

INTERNATIONAL SCIENTIFIC- PRACTICAL ONLINE CONFERENCE



**28-29 May, 2020
Bukhara**

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ТАРИХ ВА МАДАНИЙ МЕРОС ФАКУЛЬТЕТИ
ИСЛОМ ТАРИХИ ВА МАНБАШУНОСЛИГИ, ФАЛСАФА
КАФЕДРАСИ**

**“БУХОРОНИНГ ИСЛОМ ЦИВИЛИЗАЦИЯСИДАГИ ЎРНИ ВА
УНГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ”**

мавзуидаги халқаро илмий-амалий анжуман (видеоконференция)

МАТЕРИАЛЛАРИ ТЎПЛАМИ

28-29-МАЙ 2020 ЙИЛ

БУХОРО, 2020 йил

Nomoddiy madaniy meros quyidagi yoʻnalishlarda: oʻzlikni namoyon etishning ogʻzaki anʼanalari va shakllari, ijro sanʼati, jamiyatning urf-odatlarini, marosimlari, bayramlari, tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar, hamda anʼanaviy hunarmandchilik bilan bogʻliq bilim va koʻnikmalarda namoyon boʻladi.

Oʻquv mashgʻulotining amaliy mashgʻulotlar qismida oʻzbek xalq milliy oʻyinlarini oʻrgatish, oʻynash tartiblari, mustaqil ish topshiriqlari hamda amaliyotda sinab koʻrish sharoitlari 2-8-darslar asosida berilgan. mazkur xalq milliy oʻyinlari quyidagilardan iborat:

1. «Besh tosh» oʻzbek xalq milliy oʻyini.
2. «Mak-mak» oʻzbek xalq milliy oʻyini.
3. «Lanka» oʻzbek xalq milliy oʻyini.
4. «Eshak mindi» oʻzbek xalq milliy oʻyini.
5. «Chillik» oʻzbek xalq milliy oʻyini.
6. «Oʻrtaga tushar» oʻzbek xalq milliy oʻyini.
7. «Jambul» oʻzbek xalq milliy oʻyini.
8. «Oq terakmi - koʻk terak» oʻzbek xalq milliy oʻyini.
9. «Podshoh va vazir» oʻzbek xalq milliy oʻyini.
10. «Gʻozlar» oʻzbek xalq milliy oʻyini.
11. «Shoh va eshak» oʻzbek xalq milliy oʻyini.
12. «Solay-solay» oʻzbek xalq milliy oʻyini.

3-qism: Umumlashtiruvchi mashgʻulotlar (9-dars)

Oʻquv mashgʻulotining umumlashtiruvchi qismida mashgʻulot davomida xalq milliy oʻyinlari boʻyicha oʻzlashtirilgan nazariy bilim, amaliy koʻnikma va malakalari 9-dars asosida umumlashtiriladi.

Mashgʻulot materiallari.

Mashgʻulot oʻtkazish uchun materiallar oʻqituvchi, oʻquvchi hamda dars uchun ishlab chiqilgan. Oʻqituvchi uchun xalq milliy oʻyinlarini oʻrgatish yuzasidan metodik tavsiyalar, dars ishlanmalari, oʻquv qoʻllanma, uslubiy qoʻllanma, xalq milliy oʻyinlarni ifodalovchi matnlar ishlab chiqildi. Oʻquvchi uchun oʻquv qoʻllanma, tarqatma materiallar, topshiriq varaqalari, testlar tavsiya etildi. Dars uchun xalq milliy oʻyinlarda foydalaniladigan jihozlar: beshta tosh, yapaloq tosh, boʻr, lanka, 40-50 sm lik tayoq «Chillikdasta», 15-20 sm lik tayoqcha «Choʻpchilik», tosh, koptok, 4 dona yapaloq, yassi, silliq tosh, oshiq, ikkita yumaloq tosh, roʻmolchadan foydalanildi.

Mashgʻulotga tayyorgarlik.

Oʻqituvchi uchun xalq milliy oʻyinlarini oʻrgatish yuzasidan tashkil etilgan oʻquv Mashgʻulotida seminar ishtirokchisi tomonidan ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar, dars ishlanmalari, oʻquv qoʻllanma, uslubiy qoʻllanma, xalq milliy oʻyinlarni ifodalovchi matnlarni tahlil etib, oʻrganib chiqishi lozim. Oʻquvchi uchun tavsiya etilgan oʻquv qoʻllanma bilan tanishib chiqib, tarqatma materiallar, topshiriq varaqalari, testlarni oʻz vaqtida bajarishga harakat qilishi kerak. Dars uchun xalq milliy oʻyinlarda foydalaniladigan jihozlar (beshta tosh, yapaloq tosh, boʻr, lanka, 40-50 sm lik tayoq «Chillikdasta», 15-20 sm lik tayoqcha «CHOʻpchilik», tosh, koptok, 4 dona yapaloq, yassi, silliq tosh, oshiq, ikkita yumaloq tosh, roʻmolcha)dan foydalanildi.

Oʻquv mashgʻulotining maqsadi: umumiy oʻrta taʼlimga NMM mazmuni, shakl va metodlari, pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, metodik tavsiyalar ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy qilish.

Oʻquv mashgʻulotining vazifalari:

- fanlar va sinflar boʻyicha NMM elementlarini singdirish, holati va ularning tarkibiy qismlarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish;
- fanlar va sinflar boʻyicha NMM elementlarini singdirish imkoniyatlarini oʻrganish;
- NMM elementlarini singdirishning shakl va metodlarini ishlab chiqish, pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash;
- NMM elementlarini singdirish metodikasini ishlab chiqish, pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va oʻtkazish, amaliy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish, ularni amaliyotga joriy etish.

O'quv mashg'uloti yakunida egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar. NMMga oid quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari shart:

- NMMga oid tushunchalarni bilish;

-NMMning beshta yo'nalishi jihatidan bilimlarga ega bo'lish;

-NMM elementlarining inson aqliy va jismoniy kamolotini ta'minlashdagi ahamiyatini anglash;

Xulosa o'rnida shuni takidlash mumkinki, Nomoddiy madaniy meros xalqimiz hayoti, yashash tarsi bilan chambarchas bog'langan tushuncha. U orqali yoshlarni tarbiyalash, ta'lim tizimida nomoddiy madaniy meros elementlaridan foydalanish bugungi kunimizda ta'lim tizimidagi qator muammolarning yechimi bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent.: O'zbekiston, 2012. -39 b.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. T.: 1997.

Vazirlar Mahkamasining "2010-2020 yillarda NMM ob'ektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturi" to'g'risidagi 222-sonli qarori T.: 2010.

Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 29- iyuldagi «Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 269-son [qarori](#).

Sh.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. (O'zbekiston Respublikasi konsitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi maruza) 2016-yil 7-dekabr. Toshkent – “O'zbekiston” – 2017

Bozorov M. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni do'stlik va o'rtoqlik hislarini tarbiyalashda xalq an'analaridan foydalanish: Diss. ... ped.f.n. -T.: 1994. - 141 b.

Ismoilova M. Xalq qo'shiqlari vositasida o'quvchilarning ma'naviy-ahloqiy fazilatlarini shakllantirish: Diss. ... ped.f.n. - Qarshi.: 2006.

Jumayev X. Folklor va tarbiya. - Toshkent.: O'qituvchi, 1980, - 24 b. Afandi latifalari/ To'plovchilar: B.Sarimsoqov; F.Yo'ldosheva. - Toshkent.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1990. - 272 b.

<http://www.nmm.uz> (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi)

<http://www.hunar.uz> (O'zbekiston hunarmandlar uyushmasi)

<http://www.unesco.org> (YUNESKO)

<http://www.unesco.org> (YUNESKO)

<http://www.rtm.uz> (Respublika ta'lim markazi)

ТЕРМИНОЛОГИЯ ВА ТЕРМИНЛАРНИНГ МИЛЛИЙ-МАДАНИЙ ТАДҚИҚИ

Ҳожиёва Гулчехра Салимовна
Бухоро давлат университети
мустақил тадқиқотчи

АННОТАЦИЯ

Мақолада терминологиянинг соҳа сифатида фанга кириб келиши, бу борада хориж ва ўзбек олимлари олиб борган тадқиқотлар, юртимизда терминология соҳасидаги изланишлар ҳамда француз ва ўзбек тилларидаги санъатга оид терминларнинг миллий-маданий хусусиятлари тадқиқи ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: *тил, тилишунослик, терминология, термин, изоҳли лугат, санъат терминлари.*

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается проблемы терминологии, исследования зарубежных и узбекских учёных в области терминологии, а также обсуждается национально-культурологическое исследование терминологии и терминов искусства на французском и узбекском языках.

Ключевые слова: *язык, языкознание, терминология, термин, толковый словарь, термины искусства.*

ANNOTATION

The article deals with the issues of terminology, research in the field of terminology conducted by foreign and Uzbek scientists, as well as national-cultural studies of terminology and terms of art in French and Uzbek languages are discussed in the article.

Keywords: *language, linguistics, terminology, term, explanatory dictionary, terms of art.*

Тил — инсон маънавий оламида унинг ўзлигини англаш йўлидаги энг буюк кашфиётдир. Зеро даврлар мобайнида тилни тадқиқ қилар экан инсон, унинг янги ва янги қирраларини кашф қилиб боради.

Шу тариқа тилшунослик деб аталувчи сўзлар ва уларнинг ўзига хос хусусиятларидан ташкил топган улкан “пирамида” бунёдга келди ва ҳали-ҳамон унинг қирралари кенгайиб бормоқда.

Тилшунослик соҳа сифатида тадқиқ этилар экан, терминология унинг муҳим бўғини сифатида ажралмас қисмига айланди. “Терминология”га фанда турлича таърифлар мавжуд:

Терминология (лотинча *terminus* – чегара + юнонча *logos* – фан, таълимот) бир неча маъноларини ўзида акс эттиради.

Фан, техника, касб-хунарнинг бир соҳасида қўлланиладиган терминлар мажмуи. Масалан, ўзбек тили терминологияси.

Тилшуносликнинг терминларни ўрганиш, тартибга солиш билан шуғулланувчи соҳаси. Масалан, терминология бўлими, терминология мутахассиси. [1.74.]

Терминология — муайян бир соҳага оид терминлар мажмуи ва тилшуносликнинг терминларни тартибга солиш ҳақидаги соҳаси. Масалан, грамматика терминологияси, терминология масалалари. [2.564.]

Терминология — ҳар бир муаллифнинг ўзи яратадиган ўзига хос тил. [3.]

Терминологиянинг асосини ташкил этган терминлар хусусида ҳам олимлар бир неча хил таърифларни берганлар. Жумладан, Ҳ. Жамолхонов терминга қуйидагича таъриф беради: “Терминлар фан-техника, адабиёт, санъат ва бошқа соҳаларга оид ихтисослашган, қўлланиши муайян соҳа билан чегараланган тушунчаларни ифодаладиган номинатив бирликлардир: гулкоса, шона (ботаникада); тўртбурчак, квадрат (геометрияда); эга, кесим (тилшуносликда); кофия, туроқ, вазн (адабиётшуносликда)” кабилардир.

Термин – махсус луғатдир. Масалан, информатика, математика, медицина, фалсафа, грамматика, лингвистика, мусика ва б. соҳаларга доир. [4.]

Терминология соҳасида узоқ йиллар мобайнида кўплаб дунё олимлари тадқиқотлар олиб бордилар. Унинг фан сифатида таркиб топиши австриялик олим О.В.Нубасов ва рус олими Д.С.Лоттенинг 1930 йилда эълон қилинган дастлабки ишларига бориб тақалади. Ҳозирги пайтда Австрия, Германия, Франция, Россия, Чехия каби мамлакатларда терминшунослик мактаблари юзага келган. [5.125.]

Бундан ташқари рус олимларидан, В.Г.Гак, О.С.Ахманова, С.О.Карцевский, В.В. Антимирова, В.А.Татаринов, А.Л.Абрамян, Б.Н.Головин, Р.Ю.Кобрин, В.П.Даниленко, М.А.Марусенко, А.А.Стрельцов, Н.М. Голубева-Монаткина, француз олимларидан Ф.де Соссюр, ўзбек олимларидан М.Холбеков, П.Нишонов, О.Аҳмедов, Ж.Бўронов, М.Бўронова, М.Тошбоева, Х.Дадабоев, М.Умархўжаев, Н.Қамбаров ва Д.Жоджаевалар илмий ишлар олиб борганлар. [6.149-159.]

Ф.де Соссюр билан бирга француз олимларидан, Ги Рондо (Guy Rondeau, Introduction à la terminologie, Boucherville, Québec, Gaëtan Morin, 2^e éd., 1984, 238 p.), Мария Тереза Кабре Кастелви (Maria Teresa Cabré Castellvi, La terminologie. Théorie, méthode et applications, Paris, Armand Colin, 1998, 322 p.), Мари-Клод Лом (Marie Claude l’Homme, La terminologie. Principes et techniques, Presses de l’université de Montréal, 2004, 278 p.) сингари олимлар ҳам тадқиқотлар олиб бордилар. [4.]

Ўзбек тили терминологияси масалаларига биринчилардан бўлиб, Улуғ Турсунов ойдинлик киритишга ҳаракат қилди ва ушбу масалага бағишлаб кўплаб асарлар ёзди.

Жумладан, “Тил-терминологияда буржуазия интилишларига қарши”, “Ўзбек терминологияси масалалари”, “Терминология масалалари”, “Ўзбек адабий тилида сўз-терминлар танлаш принциплари” кабилар шулар жумласидандир. Бу асарларда терминларни ҳосил қилиш, тўплаш, тартибга солиш, унификациялаш ва нашр этиш соҳасидаги турли хил қарашлар ва тушунчалар ҳақида мулоҳаза юритилади. Бундан ташқари, терминология соҳасида рўй берган ва рўй бераётган чалкашликлар яққол кўзга ташлана бошлаши таъкидланади. Масалан, бир тушунчанинг турлича атала ва ёзила бошлаши; аниқ ва ихчам терминлар ўрнига узундан узоқ изоҳларнинг берилиши; термин яратишда она тили имкониятларидан кам фойдаланиш; ўзбек терминологиясини бойитишдаги манбалардан бири ташқи омилга турлича ёндашиш фактлари мавжудлиги кўрсатилди. [7.15.]

Турли фан соҳаларига оид терминлар ўзбек тилшунослигида дастлаб XX асрнинг 20-30 йилларида ўрганила бошланган. Терминларни ўрганишдан асосий мақсад чет тилларидан кириб келаётган сўзларни ўз она тилимизга айнан мос тушадиган сўзларга алмаштириш ва таржима қилишдир. Шу сабабли терминалогиянинг пайдо бўлиши ва ривожланиши нафақат бир тилдаги атамаларни таҳлил қилиш, балки бир тилдаги атамани бошқа тиллар билан киёслаб, уларнинг лексик-семантик ва миллий-маданий хусусиятларини ўрганишга ва изоҳли луғатларни шакллантиришга ҳам йўл очди. Натижада терминологиянинг шаклланиши яна бир муҳим қадам — изоҳли луғатларнинг пайдо бўлиши, ҳамда уларнинг барча жабҳаларни қамраб олишига сабаб бўлди, жумладан, мусиқа ва санъат соҳаларини.

Мустақиллик шарофати билан, айниқса, сўнгги йилларда юртимизда мусиқа ва санъат соҳаларига, бу борадаги мамлакатлараро маданий алоқаларни ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Юртимизда мунтазам равишда “Шарқ тароналари” (Самарқанд), “Ипак ва зираворлар” (Бухоро), “Мақом challenge” (Шахрисабз) фестивалларининг ташкил этиб келинаётгани халқаро маданий алоқаларда санъан, хусусан, мусиқа соҳасининг алоҳида аҳамият касб этаётганлиги сабаб, мазкур соҳага доир терминларнинг чуқурроқ ўрганилишини тақозо этмоқда.

Тадқиқот давомида ўзбек ва француз изоҳли луғатларида мусиқа ҳамда санъатга оид терминларнинг лексик-семантик ва миллий-маданий хусусиятларини таҳлил этиш баробарида бир неча ўзигахосликларни кўриш мумкин.

Мисол-1.

асбоб 1) instrument *m*;

2) outil *m*,

3) ustensile *m*;

4) matériel *m*;

5) outillage *m*;

6) installation *f*;

7) objet *m*;

Мисол-2.

асбоб-ускуна 1) outillage *m*;

2) installation *f*;

3) équipement *m*;

4) appareillage *m*;

Мисол-3.

ашё 1) objet *m*,

2) chose *f*;

3) ustensile *m*;

4) affaire *f*;

5) effet *m*;

6) matière *f*.

Ушбу мисолларда ўзбек тилидаги “асбоб”, “асбоб-ускуна” ва “ашё” сўзлари француз тилида маъно жиҳатдан ўзаро синоним бўлиб келмоқда. Чунки, 1- ва 3- мисоллардаги “ustensile”, “objet” ҳамда 1- ва 2- мисоллардаги “installation”, “outillage” сўзлари бир маънони ифодаламоқда. Бундан келиб чиқадики, ҳар иккала тилда бир маънони бир неча усулда ифодалаш мумкин:

чолғу **асбоблари** instruments de musique;

музиқий **асбоб-ускуналар** équipement musical;

музиқа **ашёлари** ustensiles de musique.

Мисол-4.

доира — tambourin

ғижжак — violon

Dr. Akhlaque A. A. ‘ahan’. Naqshbandi Silsila in Timurid India.....	1157
А.Д.Қаландаров. Ибн Синонинг механика соҳасидаги ишлари.....	1158
Jurabayeva G. IMOM BUXORIYNING “AL-JOMI AS-SAHIH” ASARIDA ILM TAVSIFI.....	1159
Abduvaliyeva T. "ISLOM SIVILIZATSIIYASIDA BUXORO MA'NAVIIY - MA'RIFIY MEROSINING UMUMBASHARIY ANAMIYATI"	1162
Tashmatova K. NOMODDIY MADANIY MEROS VOSITASIDA O'QUVCHILARDA AJDODLAR MEROSIGA HURMAT TUYG'ULARINI RIVOJLANTIRISH	1164
Ҳоҗиева Г. ТЕРМИНОЛОГИЯ ВА ТЕРМИНЛАРНИНГ МИЛЛИЙ-МАДАНИЙ ТАДҚИҚИ.....	1167
Azamat Rajabov Markaziy Osiyoda musiqa san'ati va cholg'u ijrochiligining rivojlanishi	1158
Nodirjon Kholikov THE ROLE OF AL-BUKHARI IN ISLAMIC CIVILIZATION.....	1162
Маҳмудов Равшанбек АБУ АЛИ ИБН СИНО ИЛМИЙ МАЪНАВИЙ МЕРОСИ ВА ЁШЛАР.....	1163
Ҳавасхон Шокирова Абу Али ибн Синонинг маънавий-маърифий қарашлари ва замонавий таълим уйғунлиги	1166
Намозова К. Б.Тасаввуф: инсоншуносликнинг айрим масалалари	1169
Abdurahmonova Muhabbat Orta Osiyolik buyuk allomalar va ularning jahon sivilizatsiyasi va hadis ilmiga qo'shgan hissasi	1173
Алманов Қахрамон ИЛК ЎРТА АСРЛАРДА УСТРУШОНАНИНГ СИЁСИЙ-МАЪМУРИЙ БОШҚАРУВИ ТАРИХШУНОСЛИГИ	1175
Мирханова Манзура “Дафтари гирих” Тарихий манъбалардаги ГИРИХ нақшларининг тахлили.	1178
Турсунов Қахрамон ИЛМ-ФАН ВА ИҚТИСОДИЁТНИНГ ИНТЕГРАЦИЯСИНИ ТАЪМИНЛАШ –ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИНИНГ МУХИМ ОМИЛИ СИФАТИДА	1182
Кенжабоева Раҳшона Ислом ҳуқуқи тарихида вақф институтининг пайдо бўлиши ва ривожланиши	1185
Ўрозов Абдувоҳид ИСЛОМ ТАМАДДУНИ ТАРИХИНИ АКС ЭТТИРГАН ШАҲАР	1190
Нажмиддинов Зафар Ҳусом ад-дин ас-Сифнокий ижодига Бухоро илмий муҳитининг таъсири	1193
А.Т.Гулбоев “ДИЛ БА ЁРУ ДАСТ БА ҚОР” ЭЪТИҚОД ВА КАМОЛОТГА ЭРИШУВ ШИОРИ	1197
Очилов Жамшид МУҲАММАД АЛ-ХОРАЗМИЙ ЮКСАК ТЕХНОЛОГИЯЛАР ТАРАҚҚИЁТИНИНГ АСОСЧИСИ.....	1199
Шарипов Мирзохид ЖАМИЯТНИ МАЪНАВИЙ ЮКСАЛИШИДА ҲУСАЙН ВОИЗ КОШИФИЙ АХЛОҚ ФАЛСАФАСИНИНГ АҲАМИЯТИ.....	1201
Мунисжон ҲАКИМОВ «МАРҲАБОЛАР АФАНДИМ...»	1204
Ф.Қ.Болтаев Ёшлар ўртасида ҳуқуқбузарлик ва жиноятчиликни олдини олиш механизмлари	1206
М.Ж.Қойилова Ўзбекистонда аҳолининг соғлом турмуш тарзини шакллантириш муаммолари.	1208
AKROMOVA N., RAHMONOVA Z. BUXORO MA'NAVIIY-MA'RIFIY MEROSINING CHET ELLIK VA O'ZBEKISTONLIK OLIMLAR TOMONIDAN O'RGANILISHI	1209
Хўжақулова Х.МАРКАЗИЙ ОСИЁ ИЛМ-ФАНИ РАВНАҚИДА БЕРУНИЙ МАЪНАВИЙ МЕРОСИНИНГ АҲАМИЯТИ.....	1212
Махкамова Саодат ТВОРЧЕСТВО НАРОДНОГО ХУДОЖНИКА ГАФУРА АБДУРАХМАНОВА В РАЗВИТИИ СОВРЕМЕННОЙ ЖИВОПИСИ УЗБЕКИСТАНА	1213
F.Qobilova MUHAMMAD MUSO AL-XORAZMIY ILMIIY MEROSINING MATEMATIKA FANI RIVOJIDAGI ANAMIYATI.....	1217
Kenjayev O'ktamjon RAQAMLI IQTISODIYOT VA RAQAMLI IQTISODIYOTDA MA'LUMOTLAR XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA KRIPTOGRAFIYANING O'RNI.....	1219
ХАСОНБОЕВ Бегзоджон ВАТАНПАРВАР ЁШЛАРНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ МАЪНАВИЙ ВА МАФКУРАВИЙ АСОСЛАРИ	1223
Сатторов Алишер Буюк Британиянинг аудиторлик фаолиятини ўрганиш тажрибаси.....	1224
Д.Носирова, Ф.Эргашева СПОРТЧИЛАРНИНГ ИРОДА СИФАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНИШИДА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВ.....	1226
М.И.Бақоева Тўрт шайх - тасаввуфнинг йирик намояндалари (Чор-бакр).....	1228
Sobirova Sh, Jumayev T.Kitob- ruhiyat oзуqasi.....	1230
Sobirova Zarina Kitob - inson umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur	1232
Namidova N, Qo'ziyev I, Saidov S. Oilada kitobxonlik mutolaasi	1233
O'rinov A, Safarov N, Aslonov K. Kitob javoni – haqiqiy ziyolining eng ardoqli davlati	1235
Ражабова Дилшода Ўқувчиларнинг иқтидоларини, қобилиятларини ривожлантириш	1237
Умид Мавлянов МАЪНАВИЯТ АЛИ САФИЙ ТАЛҚИНИДА	1238
Умид Мавлянов АЛИ САФИЙНИНГ “ЛАТОИФ-УТ-ТАВОИФ” АСАРИ ҲАҚИДА	1239
Ражабов Т.И. ЁШ АВЛОДНИ ТАРБИЯЛАШДА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРИМИЗНИНГ ТАРБИЯВИЙ АҲАМИЯТИ.....	1241
Вазира Садуллаева Культура и обучение Бухарского ханства.....	1243